

✓
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
INSTITUTI

apat
H.A .Soipova

Arab tili o'qitishni jadallashtirish

(o'quv qo'llanma)

Toshkent – 2010

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

H.A .Soipova

Arab tili o'qitishni jadallashtirish

(o'quv qo'llanma)

TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
KUTUBXONASI
№ _____

Toshkent – 2010

H.A.Soipova, Arab tili o'qitishni jadallashtirish to'plami (o'quv qo'llanma). –T.: ToshDSHI, 2010. 48-b.

Mazkur o'quv qo'llanma arab adabiy tili grammatikasini o'qitishni jadallashtirishda magistratura bosqichi talabalari hamda ustozlar o'rtasidagi o'quv rejalarini jadal amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Qo'llanma I kurs magistratura talabalari egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, va malakalarni kompetentlik darajasida rivojlantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ko'rinishdagi o'quv-metodic manbalar, didaktik vositalar va materiallar mezonlarini o'z ichiga oladi.

O'ylaymizki, mazkur o'quv qo'llanma I bosqich talabalarining arab tili o'rganishdagi jadal ishlarini samarali tashkil etishda o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Mas'ul muharrir: *“Arab filologiyasi” kafedrasini mudiri
Kat. o'qituvchi N.M. Orifx o'jayev*

Taqrizchilar: *TIU Sharq tillari kafedrasini
kat. o'qituvchisi Z. Shokirova
“Arab filologiyasi” kafedrasini
kat. o'qituvchisi O.M. Mirsagatova*

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.
(Bayonnoma № 2. 23.12.2010)

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi dunyoviy demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi har tomonlama ma'naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalashdir. Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, o'sib kelayotgan yosh avlodni, ya'ni har bir shaxsni shakllantirish va ularni mustaqil ishlay olishga o'rgatish masalasi alohida o'rin tutadi. Bu borada yurtboshimizning: “Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi.

Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak¹”, – degan so'zlarini ta'kidlab o'tish joiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin.

Hozirgi kunda ta'lim sohasining barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab – talabning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirishdir.

Mazkur o'quv qo'llanma arab adabiy tili grammatikasini o'qitishni jadallashtirishda magistratura bosqichi talabalari hamda ustozlar o'rtasidagi o'quv rejalarini jadal amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Qo'llanmaning yaratilishidan asosiy maqsad mazkur matnlar ustida mustaqil ishlash jarayonida talabalarga lug'at bilan ishlash va arab tilidan tarjima qilish ko'nikmalarini egallash hamda grammatik materialni mustahkamlash imkonini berishdan iborat.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. 7-b.

Qo'llanmadagi o'quv materiali maxsus mavzularga ajratilgan bo'lib, mavzularning murakkablik darajasi magistratura bosqich talabalarining imkoniyatiga mos keladi.

O'ylaymizki, mazkur o'quv qo'llanma I bosqich talabalarining arab tili o'rganishdagi jadal ishlarini samarali tashkil etishda o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Muallif

1- dars

QO'SHMA GAP LAR TARKIBIDA FE'L MAYLLARINING QO'LLANILISHI

Dars maqsadi: Fe'l mayllarining qo'shma gap lar tarkibida qo'llanilishi haqida ma'lumot berish va ularni qo'llash bo'yicha malakalarni hosil qilib, arab tili o'qitishni jadallashtirish maqsadida *زيارة رئيس روسيا الى مصر* "Rossiya Presidentning Misrga tashrifi" matnini tarjima qilsih va matnni qayta hikoya qilish. "Rossiya Presidentning Misrga ziyorati" mavzusida suhbatlashish, notanish so'zlarni yozma va og'zaki nutqda qo'llash malakasini shakillantirish.

Asosiy savollar

1. Bog'langan qo'shma gaplar.
2. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar.
3. Bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar.
4. Ergash gapli qo'shma gap.

Tayanch iboralar:

1. Qo'shma gap.
2. Murakkab jumla.
3. Boqlangan.
4. Ergashgan.
5. Biriktiruv.
6. Teng bog'lovchi.
7. Zidlovchi.
8. Ergash gap.
9. Bosh gap.

Ega ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapning egasi vazifasini bajaradi. Arab tilida ega ergash gap bosh gapning kesimiga nisbiy olmosh yordamida bog'lanadi.

Ega ergash gap *ma; man* yuklamalari bilan ham qo'shilishi mumkin. Ega ergash gap bosh gapga *an, anna* yuklamalari yordamida ham birikadi. Bunda ko'pincha bosh gap shaxsi noma'lum bo'lgan iboralardan tashkil topadi.

B/BX/B jadvali tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar mavzu bo'yicha "nimalarni bilasiz" va "nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvolning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar. Mavzuni tinglaydilar va 3 bo'limni to'ldiradilar.


B/BX/B jadvali

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
Ikki sodda gap yig'indisi qo'shma gap deyiladi.	1. Arab tilida qo'shma gaplar qanday yasaladi? 2. Arab tilida nisbiy olmosh nima?	Arab tilida ikki hil qo'shma gap bor. Arab tilida nisbiy olmoshlar 'kimki', 'qaysiki', 'nima' so'zlari yordamida beriladi.

Klaster

Klaster usuli bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Yozuv taxtasining o'rtasiga asosiy so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu

"yo'ldoshlarda" kichik "yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.



Nazorat savollari

1. Qo'shma gap nima?
2. Sodda gaplar bir-biriga qanday bog'lovchilar bilan bog'lanadi?
3. Biriktiruv bog'lovchilar qaysilar?
4. Zidlov bog'lovchilari qaysilar?
5. Qanday gap ergash gap deyiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Berilgan matnda qo'shma gaplar turlanini aniqlang
2. Qo'shma gaplar ishtirok etgan jummalarni aniqlang

Asosiy adabiyotlar:

1. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 1, 6, 7, 12, 13, 17, 26, 27, 32, 38, 39.
2. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, str. 17, 28-29, 35, 41, 45. .

3. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1998, 8, 11-19 b.
4. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 19-44.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
2. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
3. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
4. 1998، علم اللغة العربية . القاهرة، 1998، د. محمود فهمي حجازي .
5. 1998، علوم اللغة . القاهرة، 1998،

2- dars

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TO'LDIRUVCHI ERGASH GAP VA UNING QO'LLANILISHI

Dars maqsadi: To'ldiruvchi ergash gap va uning ommaviy axborot vositalarida qo'llanilishi haqida ma'lumot brish va ularni qo'llash bo'yicha malakalarni hosil qilib, arab tili o'qitishni yanada takomillashtirish uchun o'tilgan mavzuning amaliy ko'nikmalarini yozma va og'zaki nutqda qo'llash malakasini shakllantirish.

Asosiy savollar:

1. To'ldiruvchi ergash gap haqida tushuncha;
2. Ularni OAV da qo'llanishidagi o'ziga xosliklar.

Tayanch iboralar:

1. Bosh gap;
2. Ergash gap;
3. Qo'shma gap;
4. To'ldiruvchi;
5. Yuklamalar;
6. Bog'lovchilar.

To'ldiruvchi ergash gap deganda, sodda gap shaklida kelgan kengaytirilgan ya'ni bir necha so'zdan iborat bo'lgan to'ldiruvchining bosh gap bilan kelishi tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, bosh gapning to'ldiruvchisi vazifasida keluvchi ergash gap to'ldiruvchi ergash gap deyiladi.

To'ldiruvchi ergash gap ham to'ldiruvchi javob bo'lgan savollarga javob bo'ladi.

Arab tilida to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1. O'zidan oldin kelgan أَنْ yuklamasi yordamida. Bunda to'ldiruvchi ergash gapning egasi tushum kelishigida keladi.

Masalan:

Eshitdimki, bu student odobli yigitdir. - سمعتُ أن هذا الطالب شاب مجتهد

Ilmning foydali ekanini bildim. - عرفت أن العلم نافع

2. Agar bosh gapning kesimi قال fe'lidan yoki shu fe'ning biror formasidan iborat bo'lsa, أَنْ yuklamasi vazifasida إِنَّ yuklamasi ishlatiladi.

Masalan:

Islom dini aytadiki, Alloh yagonadir. - يقول الدين الإسلامي إن الله واحد

Do'stim aytdiki, u kasal emish. - قال صديقي إنه مريض

3. Agar biror sabab bilan to'ldiruvchi ergash gapning egasi bosh gapdan uzoqda bo'lsa va u ergash gapning kesimidan keyinga o'tgan bo'lsa, أَنْ (إِنَّ) yuklamasiga III shaxs muzakkar birlik qo'shiluvchi olmoshi qo'yiladi va u tarjima qilinmaydi.

Masalan:

Axirni المعلم أنه توجد في غرفة الدرس تلك كثير من الطاولات والكراسي

Oqituvchi menga ma'lum qildiki, o'sha auditoriyada ko'pgina stol va stullar mavjud.

4. Agar bosh gapning kesimi o'zidan keyin predlog talab etadigan fe'ldan iborat bo'lsa, yuklamasi o'sha predlogdan keyin keladi.

Masalan:

إنتي لا أنسى الذين ساعدوني في أيامي الصعبة - Bu muammo haqida uzoq o'yladim.

5. To'ldiruvchi ergash gap ba'zan bosh gapga الذي va uning variantlari yordamida ham boqlanishi mumkin. Bu nisbiy olmoshlar to'ldiruvchi ergash gapning egasi bilan moslashadi.

Masalan:

إنتي لا أنسى الذين ساعدوني في أيامي الصعبة

Qiyin kunlarimda menga yordam qilganlarni unutmayman.


6. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga yuklamasi yordamida ham bog'lanishi mumkin. Bunda to'ldiruvchi ergash gap fe'l kesimli gap bo'lishi kerak.

Masalan:

أريدك أن تكتب لي رسالة - Menga xat yozishingni hohlayman.

Arab tilida to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar o'zbek tiliga ko'pgina hollarda qo'shma gap emas, balki, sodda gap sifatida tarjima qilinadi.


“VENNA” DIAGRAMMASI



“BALIQ SKELETI” chizmasi tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar kichik guruhlariga bo'linib “Baliq skeleti” chizmasining yuqori „suyagida“ arab tilidagi 3 so'z turkumini yozadi, pastda esa bu so'z turkumlarga “Rossiya prezidentining Misrga ziyorati” matnida uchragan misollarni keltiradi.

«BALIQ SKELETI»

زيارة رئيس روسيا الى مصر " (Rossiya prezidentining Misrga ziyorati) matni



Amaliy mashqlar :

1. Quyidagi fe'llarning majhul nisbat vaznini bering:

النوع	الفعل	المجهول	الفعل
	يُسِير		وَقَعَ
	يَتَّق		التَّقَى
	يُعَرَّب		اَضَاف
	يَدْعُو		اِسْتَقْبَلَ

2. Quyidagi so'z iboralarini o'zbek tiliga tarjima qiling :

- اعار اهتماما خاصا
- التبادل التجارى
- اجرى مباحثات

Nazorat savollari

1. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar qanday ta'riflanadi?
2. To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap bilan qaysi yuklamalar orqali bog'lanadi?
3. To'ldiruvchi ergash gaplar o'zbek tilida tarjima qilinganda o'z holatida qoladimi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Berilgan matnda to'ldiruvchi ergash gaplarning turlarini aniqlang.
2. To'ldiruvchi ergash gap qatnashgan gaplarni aniqlang.

Asosiy adabiyotlar:

5. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 1, 6, 7, 12, 13, 17, 26, 27,32, 38, 39.
6. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, str. 17, 28-29, 35, 41, 45. .
7. Ibrohimov N.,Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1998, 8, 11-19 b.
8. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 19-44.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
7. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
8. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
9. 1998، القاهرة، علم اللغة العربية . محمود فهمي حجازي .
10. 1998، القاهرة، علوم اللغة .

3- dars

BADIIY ASAR VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MURAKKAB ZAMON FORMALARI VA ULARNING ISHLATILISHI

Dars maqsadi: Murakkab zamon formalari va ularning badiiy asar va ommaviy axborot vositalarida ishlatilishi haqida ma'lumot berish va ularni qo'llash bo'yicha malakalarni hosil qilib, arab tili o'qitishni jadallashtirish.

Tayanch iboralar:

1. Fe'l
2. Uch o'zakli fe'l
3. Fe'l zamonlari
4. Fe'l vaznlari
5. O'timli fe'l
6. O'timsiz fe'l
1. O'tgan zamon
2. O'ozirgi zamon
3. Kelasi zamon
4. Vazn
7. Old qo'shimchalar
8. murakkab zamon

Asosiy savollar:

1. Fe'l haqida umumiy ma'lumot
2. Fe'l zamonlari haqida.
3. Uch o'zakli fe'llarning o'tgan zamoni
4. O'tgan zamon fe'li haqida
5. I bob fe'llarining tuslanishi.
1. Fe'llarda zamon tushunchasi
2. Fe'lning o'tgan zamoni
6. Fe'lning hozirgi-kelasi zamoni

Arab tilidagi fe'llarning infinitiv (noaniq) shakli yog'. Shuning uchun Yevropa va rus tillaridagi darsliklarda va luqatlarda shartli

infinitiv shaklida fe'ning 3-shaxs, muzakkar, birlikdagi shakli beriladi.

Masalan: كَتَبَ ، فَرِحَ ، كَبِرَ

Uch o'zakli fe'llarning 1 bobi فَعَلَ vaznida bo'ladi.

Masalan: فَعَلَ ، فَعِلَ ، فَعُلَ

Shu bob fe'llarining 80 foizi mana shu vaznda bo'ladi. Bundan tashqari فَعُلَ ، فَعِلَ ، فَعَلَ vaznidagi fe'llar ham bor.

Masalan: فَرِحَ ، كَبِرَ

فَعُلَ vaznidagi fe'llarning ba'zisi o'timli, ba'zilar o'timsiz bo'ladi.

Ammo فَعُلَ vaznidagi fe'llar doimo o'timsiz bo'ladi.

Masalan: كَبِرَ

Ba'zi o'timsiz fe'llar predloglar yordamida 2- va 4- boblarda o'timli bo'ladi. Masalan: ذَهَبَ بَ - ذَهَبَ «ketmoq»-o'timsiz, «olib ketmoq»-o'timli. Uning ta'rifi shunday:

O'tgan zamon fe'li bir ish-harakatning o'tgan zamonda bajarib bo'linganligiga dalolatdir. Uning ajratib turadigan alomati birorta harakatli va sukunli muannas تَ - sini qabul qilishidir. Masalan: كَتَبْتُ

Bu ت larni «تاء الفاعل» - «bajaruvchi ت» deb ataladi. Muannas تَ - sini sukunli bo'lsin deb shart qilinishiga sabab shuki, harakatli muannas تَ ham ت kabi. Ammo bu ت fe'ning alomati emas.

O'tgan zamon fe'lini inkor qilish uchun ما inkor yuklamasi ishlatiladi.

Masalan: ما كتب . Unga kirgan ما yuklamasi ish-harakatning allaqachon bajarib bo'linganligini bildiradi.

Buning arabcha ta'rifi quyidagicha:

O'tgan zamon fe'li bir ish-harakatning o'tgan zamonda bajarib bo'linganligiga dalolat qiluvchi fe'ldir.

«Ali darslarini tayyorlayapti, bir ozdan keyin uhlaydi» degani kabi. Bu fe'ning ajratib turuvchi belgilaridan biri unga yuklamasini qabul qilishidir.

Masalan:

Uch o'zakli fe'llarning o'tgan va hozirgi-kelasi zamoni quyidagi olti vaznda keladi:

1. فَعَلَ
2. فَعِلَ

3. فَعُلَ
4. يَفْعَلُ
5. يَفْعِلُ
6. يَفْعُلُ

Agar o'tgan zamon shaklining o'rta o'zagi dammali bo'lsa, hozirgi-kelasi zamonda ham dammali bo'ladi.

Masalan: كَبِرَ - يَكْبُرُ

O'tgan zamoni bo'lsa, hozirgi-kelasi zamoni ko'pincha bo'ladi.

Masalan:

O'tgan zamoni bo'lsa, hozirgi-kelasi zamonning aksariyati vaznida bo'ladi.

Masalan:

O'tgan zamoni bo'lib, hozirgi-kelasi zamoni bo'ladigan fe'llar juda kam uchraydi.

O'ozirgi -kelasi zamon fe'llarining inkori uchun لا inkor yuklamasi, ba'zan ما inkor yuklamasi ishlatiladi.

Masalan: لا يكتب

Bu fe'llarning majhul darajasi يُفْعَلُ vaznida yasaladi.

Masalan: - يَكْتُبُ - yoziladi

Bularning hozirgi zamonidan kelasi zamonini ajratish uchun س yoki yuklamalari qo'shiladi.

Masalan: سيكتب - u yozadi.

Bu fe'llarga qo'shiladigan قد yuklamasi gumon ma'nosini anglatadi.

Masalan:

قد يعرفه أبوك - «Otang uni taniydiganga o'hshaydi».

Amaliy mashqlar :

3. Quyidagi so'z iboralarning to'g'ri variantini toping:

ب	أ
Ko'p millatli	مجلس الفيدرالية
Prezidentlik respublika	متعددة القوميات

Yuqori palata	المجلس الاسفل
Quyu palata	المجلس الاعلى
Ijrochilik	السلطة التشريعية
Qonunchilik	السلطة التنفيذية

4. Quyidagi soʻz iboralarini oʻzbek tiliga tarjima qiling :

نظام سياسى
حزب سياسى
حالة سياسىة
نشاط سياسى
سياسة اقتصادية
سار على سياسة

5. Quyidagi soʻzlarning oʻzagini toping:

الاصلى	الكلمة	الاصلى	الكلمة
	اتمام		مجلس
	اجراءات		ادارية
	ينخفض		اساسية
	عش		منطقة

Nazorat savollar

1. Fe'llar deb nimaga aytiladi?
2. Fe'ning nechta zamoni bor?
3. O'tgan zamon fe'li qanday tuslanadi?
4. 1-bob fe'lining kichik tuslanishi qanday?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Berilgan matndan fe'liy soʻz birikmalarini oppish.
2. Fe'llarni o'tgan zamonda tuslash.

Asosiy adabiyotlar

9. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 1, 6, 7, 12, 13, 17, 26, 27,32, 38, 39.
10. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, str. 17, 28-29, 35, 41, 45. .
11. Ibrohimov N.,Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1998, 8, 11-19 b.
12. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 19-44.

Qo'shimcha adabiyotlar

11. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
12. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
13. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
14. د. محمود فهمي حجازي . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1998
15. علوم اللغة . القاهرة ، 1998

4-dars

BADIIY ASARLARDA SABAB ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI

Dars maqsadi: Sabab ergash gapli qo'shma gaplar va ularning badiiy asarlarda qo'llanilishi haqida ma'lumot berish va ularni qo'llashga doir ko'nikmalarni hosil qilib, arab tili o'qitishni jadallashtirish.

Tayanch iboralar:

1. Bosh gap.
2. Ergash gap.
3. Yordamchi soʻz.
4. Modal soʻz.
5. sodda gapning maxsus turi

Asosiy savollari

1. Bosh gap bilan ergash gapning لِأَنَّ ، لِمَا ، بِمَا ، إِذْ ، وَ yuklamalari bilan bog'lanishi.
2. نظرًا أن ، sharofati bilan, بسبب أن ، sababli, ga ko'ra kabi yordamchi soʻzlar bilan ergash gapning bosh gapga bog'lanishi.

Sabab ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning bajarilish sababini bildiradi. Sabab ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin va uning oldidan quyidagi yordamchi soʻzlar keladi: لِأَنَّ ، لِمَا ، وَ ، بِمَا ، إِذْ ، وَ

ko'nikmalarini yozma va og'zaki nutqda qo'llash malakasini shakllantirish.

Tayanch iboralar:

1. Cheklov
2. Moslashuv
3. Chegaralash
4. Ortirma, qiyosiy, sifat.

Asosiy savollar

1. Cheklov - grammatik kategoriya.
2. Cheklov vazifasida son.

Gapning kesimini izohlab, to'ldirib kelayotgan noaniq holat tushum kelishigidagi ism cheklov, arab tilida التمييز deb aytiladi va bu grammatik kategoriya faqat arab tiligagina hos bo'lib, boshqa tillarda uchramaydi.

Gapda cheklov bo'lib kelgan so'z - kesim ifodalayotgan ma'noning ob'ektini yanada aniqlab, chegaralab keladi, kesimning ma'nosini to'ldiradi. Bunday gaplarda kesim ot bilan ham fe'l, bilan ham ifodalanishi mumkin. Ammo cheklov gapning egasi bilan ham, kesimi bilan ham jinsda va sonda moslashmaydi.

Misollar:

امتلاً الإناء ماءً - *Idish suvga to'ldi.*

(so'zma-so'z: Idish (faqat) suv bilan to'ldi)

Cheklov asosan kesim ortirma yoki qiyosiy darajadagi sifatlar bilan ifodalangan bo'lsa ko'proq ishlatilishi mumkin.

Masalan:

طشقتندُ أكبرُ من سمرقندَ مساحةً - *Toshkent maydoni bo'yicha Samarqanddan kattaroq.*

المشمشُ أحسنُ من التفاح طعمًا - *O'rik olmadan shirinroq.*

(O'rik olmadan (ta'miga ko'ra), ta'mi bo'yicha shirinroq).

هو أصغرُ مني سنًا - *U mendan yoshroq.*

Cheklov yana 11 dan 99 gacha bo'lgan sonlardan keyin oqirlik, uzunlik o'lchovlaridan keyin ham ishlatiladi:

Masalan:

في الخزانة أربعة عشر كتابًا - *Shkafda 14 ta kitob bor.*

إشتريتُ مترا حريرا - *Bir metr shoyi sotib oldim.*

Nazorat savollari

1. Cheklov deb nimaga aytiladi?
2. O'zbek tilida ham cheklov tushunchasi mavjudmi?
3. Cheklov vazifasida tartib sonlarni ishlatish mumkinmi?
4. Cheklov ega-kesim bilan jins va sonda moslashadimi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. berilgan matnda cheklov qo'llanilgan jummalarni toppish.
2. yangi so'zlar ishtirokida cheklov ishlatilgan jummalarni tuzish.

Asosiy adabiyotlar:

17. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 1, 6, 7, 12, 13, 17, 26, 27, 32, 38, 39.
18. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, str. 17, 28-29, 35, 41, 45. .
19. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1998, 8, 11-19 b.
20. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 19-44.

Qo'shimcha adabiyotlar

21. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
22. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
23. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
24. د. محمود فهمي حجازي . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1998
25. علوم اللغة . القاهرة ، 1998

6-dars

BADIIY ASAR VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA IZOFA TURLARINING QO'LLANILISHI

Dars maqsadi: Arab tilida izofa turlari haqida ma'lumot berish va ularni qo'llash bo'yicha malakalarni hosil qilib, arab tili o'qitishni yanada takomillashtirish uchun o'tilgan mavzuning amaliy ko'nikmalarini yozma va og'zaki nutqda qo'llash malakasini shakllantirish.

Tayanch iboralar:

1. moslashgan aniqlovchi;
2. moslashmagan aniqlovchi;
3. izofa ma'naviyya;
4. izofa lafziyya.

Asosiy savollar:

1. Aniqlovchining turlari.
2. Moslashmagan aniqlovchi vazifasida keladigan so'z turkumlari.
3. Ma'naviy va lafziy izofaning o'xshash va farqli tomonlari.

Ma'naviy izofada muzof foil, mafu'l yoki sifat mushabbaha (doimiy sifat) ko'rinishida kelmaydi. Agar kelsa o'tgan zamon ma'nosida kelishi mumkin.

Masalan: هذا ضاربٌ زيدٌ أمس kabi. Shuningdek, bu izofadagi muzof masdar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Masalan:

حسنُ الكلام لا يَتِمُّ إلا يُحَسِّنُ العمل

Bunday izofada muzof ilayhi atoqli ot yoki (al) olgan ism bo'lsa, unda muzof butunlay aniq holda hisoblanadi. Agar muzof ilayhi nakira (noaniq) ism bo'lsa, unda muzof ham noaniq bo'ladi va nimanidir, kimgadir tegishli ekanligini bildiradi. Ma'naviy izofa deb, nomlanishining sababi, muzof ma'naviy bir ishni, ya'ni aniqlik va tegishlilikni bildirayapti. Bunday izofadagi ismlarni, agar izofasiz aytilsa, unda (li, min) yoki (fi) predloglari bilan aytish shart, predlogsiz aytib bo'lmaydi.

Masalan:

صديقٌ لمحمدٍ ni صديقٌ محمدٍ

Muzofning (al) qabul qilishi.

Ma'naviy izofada muzof (al) qabul qilmaydi, هو الغلامُ رجلٌ deb bo'lmaydi. Chunki ma'naviy izofada muzof ilayhi muzofni aniqlab keladi, (al) ham aniqlash uchun kiritiladi, bitta so'z ikki marta aniqlanilmaydi.

Ammo lafziy izofada, aslida bunda ham (al) kirmaydi, lekin ba'zi holatlarda muzofga (al) kirishi mumkin.

1. Muzofga (al) kirishi uchun muzof ilayhida (al) bo'lishi kerak.

Masalan:

القارئُ تاريخُ العربِ خالدٌ الضاربُ رأسَ الجاني
ya'ni *Ali yahshi hislatli, shirin so'zli, jingalak sochli* degani kabi.

2. Muzof ilayhi (al) bor boshqa so'zga muzof bo'lsa:

Masalan:

القارئُ تاريخُ العربِ خالدٌ الضاربُ رأسَ الجاني

Yuqorida muzofning muzof ilayhiga tegishli bo'lishi yoki muzof ilayhi muzofni aniqlab kelishini bildik. Shuninguchun muzof va muzof ilayhi ikkalasi boshqa boshqa ma'nodagi narsalar bo'lishi kerak. Sinonim ismlarni izofaga kirgizib bo'lmaydi.

Masalan: قَمْحٌ (qamhun) ham, بُرٌّ (burrin) ham *buqdoy* degani. Ikkovini izofa qilib, هذا قَمْحٌ بُرٌّ (haza qamhun burrin) deb bo'lmaydi. Yoki aniqlanmish bilan aniqlovchini izofa qilib, هذا رجلٌ فاضلٌ (haza rajulun fadilin) deb bo'lmaydi.

Yoki buning aksini ham izofa qilib bo'lmaydi.

Masalan:

جاءَ فاضلٌ رجلٌ (jaa fadilu rajulin) kabi.

Muzakkar jinsidagi muzofning muannas muzof ilayhi sababli muannas bo'lishi.

Agar muzof muzakkar bo'lsa va muzof ilayhi muannas bo'lsa, muzof ilayhi sababli muzof muannas bo'lishi mumkin. Buning sharti shuki, o'sha muzof hazf qilishga va uning o'rnini muzof ilayhi egallashga yaroqli bo'lishi kerak.

Masalan:

قُطِعَتْ بعضُ أصابعه (qutiati ba'du asabiuhu) degan misolda, بعضُ (ba'du) kalimasi aslida muzakkar. Ammo muannas jinsidagi أصابعُ (asabiu) bilan izofaga kirgani sababli muannas deb hisoblanadi. Bu shart faqatgina muzof-muzof ilayhining bir qismi yoki hammasi bo'lgan taqdirdagina amalga oshadi. Bunday holatda muzofni hazf qilish mumkin.

Masalan: غابتُ بعضُ الطالباتِ yoki قُطِعَتْ أصابعه yoki حضرت كل الطالباتِ kabi.

Muannas muzofning muzakkar muzof ilayhi sababli muzakkar bo'lishi.

Agar muzof muannas bo'lsa, va muzof ilayhi muzakkar bo'lsa, muzof ilayhi sababli muzof muzakkar bo'lishi mumkin. Buning uchun huddi yuqoridagi shartlar zarur bo'ladi.

Masalan: **إِنَّ رَحْمَةَ اللَّهِ قَرِيبٌ مِنَ الْمُحْسِنِينَ**

Qur'oni Karimdagi bu misolda رحمة kalimasi muannasdagi muzofdir, biroq, muzof ilayhi muzakkarligi sababli u muzakkarga aylanadi. Shuning uchun uning habari bo'lgan قَرِيبٌ kalimasi muzakkar kelgan.

Amaliy mashqlar:

1. Quyidagi so'zlardan to'g'ri so'roq gap tuzing :

1. روسيا على رئيسا و سوريا ماذا يحرص ؟
2. بين الحوار ماذا السياسى البلدين يكشف ؟
3. من هو بشار الاسد ؟
4. العلاقات بين روسيا واصل سوريا اية و ؟
5. البلدين مصلحة ما خدم ؟

2. Quyidagi so'zlar ishtirikida gap tuzing:

نوة
العلاقات المتبادلة
مصلحة
مهرجان
تنمية
شريك
موثقة
تقارب

“Sinkveyn” usuli.

Sinkveyn so'zi fransuz tilidan olinib, “besh” ma'nosini ifodalaydi. Sinkveyn besh satrdan iborat bo'lib, o'rganalayotgan mavzu haqida o'z fikrini bildirish usuli. Birinchi satrda mavzu bitta so'z bilan (asosan ot bilan) beriladi. Ikkinchi satrda esa, osha so'zga tegishli ikkita sifat keltiriladi. Uchinchi satrda, mavzu bilan ma'no jihatidan bog'liq bo'lgan uchta fe'l, to'rtinchi satrda esa berilgan mavzu to'rtta so'z yordamida ifodalanadi. Va ohirgi satrda birinchi satrdagi so'zga mos sinonim beriladi.

العلاقات الدبلوماسية بين عمان وروسيا

(“Rossiya va Ummon o'rtasidagi diplomatic aloqalar”) matni

1. _____ kelishuv
2. _____ ikki tomonlama, uzoq muddatli

3. _____ intilmoq, foydalanmoq, imzolanmoq
4. _____ diplomatik aloqalar samarali rivojlanmoqda
5. _____ bitim

Nazorat savollari:

1. Izofa birikmasi qanday birikma?
2. Izofa necha turli bo'ladi?
3. Qanday predloglar ma'nosida keladi?
4. Ma'naviy izofa nega ma'naviy deyiladi?
5. Nima uchun lafziy izofa deyiladi?
6. Lafziy izofada muzof nega ol oladi?
7. Izofa zanjiri nima?
8. Zanjir qanday tarjima qilinadi?
9. Moslashgan aniqlovchi muzof va muzof ilayhi bilan qanday moslashadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Lafziy izofa ishtirok etgan jumlar tuzing.
2. Matnda qo'llanilgan ma'naviy izofa birikmalarini aniqlang va ularning gapdagi vazifalarini belgilang.

Asosiy adabiyotlar:

21. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 1, 6, 7, 12, 13, 17, 26, 27, 32, 38, 39.
22. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, str. 17, 28-29, 35, 41, 45. .
23. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1998, 8, 11-19 b.
24. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 19-44.

Qo'shimcha adabiyotlar

26. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
27. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.

28. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
 29. د. محمود فهمي حجازي . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1998
 30. علوم اللغة . القاهرة ، 1998

7-dars

LAFZIY IZOFA VA UNING JUMLA TARKIBIDA ISHLATILISHI

Dars maqsadi: Lafziy izofa va uning jumla tarkibida ishlatilishi haqida ma'lumot berish va ularni qo'llash bo'yicha malakalarni hosil qilib, arab tili o'qitishni yanada takomillashtirish uchun o'tilgan mavzuning amaliy ko'nikmalarini yozma va og'zaki nutqda qo'llash malakasini shakllantirish.

Tayanch Iboralar:

1. Izofa;
2. Izofa zanjiri;
3. Muzof;
4. muzof ilayhi;
5. moslashmagan aniqlovchilik birikma.

Asosiy savollar:

1. Izofa birikmasi haqida ma'lumot.
2. Izofa turlari haqida ma'lumot.
3. Har bir tur haqida alohida ma'lumot.
4. Izofa zanjiri haqida ma'lumot.

Yuqorida o'tgan qoidalar aniqlovchi bo'lib keladigan ko'rsatish olmoshlariga ham tegishlidir. Kesim agar ismiy bo'lsa ham unga, ham tegishli bo'ladi. Faqat bunda kesim umumiy qoidaga binoan noaniq holatda bo'ladi.

- هؤلاء الرجال عقلاء - Bu kishilar aqlidirlar.
 هؤلاء النساء عاقلات - Bu ayollar aqlidirlar.
 هذه البيوت جديدة - Bu uylar yangidir.
 هذه المقالات مفيدة - Bu maqolalar foydalidir.

Arab tilida moslashgan aniqlovchi birikmasidan tashqari moslashmagan aniqlovchi ham bor. Bunda ikki ism bir-birini aniqlab keladi. Ammo ular bir-biri bilan moslashmaydi. Uning birinchi ismi ikkinchi ismini kasrali bo'lishini talab qiladi. Bunday birikmani *izofa birikmasi* deyiladi, u ikki qismdan tashkil topadi. Buning birinchisi *muzof*, ikkinchisi *muzof ilayhi* deyiladi. Izofa birikmasi ikki hil bo'ladi.

- 1) Ma'naviy izofa,
- 2) Lafziy izofa.

Ma'naviy izofa lafziy izofadan 5 ta narsa bilan farq qiladi:

1. Ma'naviy izofada *muzof* doimo ism bo'lib keladi.
2. Muzof ilayhi (al) artiklini olgan bo'lsa, muzofni aniqlab keladi.
3. Muzof ilayhi olgan bo'lsa.
4. Ma'naviy izofa va predloglari ma'nosida bo'ladi.
5. Ma'naviy izofaning muzofi tanvin olmaydi. Izofaning luqaviy ma'nosi إضافة ya'ni «tayanish».

Masalan: *هذا صاحبك*, ya'ni bir narsani boshqa narsaga tayantirdik deganimiz kabi, Nahv olimlarining islohihga esa, bir kalimaning ikkinchi kalimaga tayanishi, ammo bunda ikkinchi ism birinchi ism tanvinining o'rinini egallaydi. Mana shuning uchun izofadagi ismlar tanvinsiz bo'ladi. Izofaga kirgan ikkilik va ko'plik nunlari hazf qilinadi, hamda tanvin tushirib qoldiriladi. Tanvinning tushib qolishini misoli quyidagicha *هذا صاحبك* (haza sohibuka) asli esa, *صاحب لك* (sahibun laka), izofaga kirgani uchun tanvin hazf qilingan. Ikkilik nunining hazf qilinishi misoli quyidagicha: *هذان غلاما زيد* va *هذان*. Buning misoli qur'onda ham kelgan: *تَبَّتْ يَدَا أَبِي لَهَبٍ وَتَبَّ*. Asli esa *إبنان* edi, ikkilik nunlari izofaga kirgani sababli hazf qilingan. Ko'plik nunining misoli esa quyidagicha: *حمى الله محرري*. Asli esa, *محررين* edi. Nunlar izofaga kirgani uchun hazf qilingan.

Agar ismning oxiridagi nun ikkilik yoki ko'plik nuni bo'lmasa, ular hazf qilinmaydi.

Masalan:

بساتين الشام va مأمون العاقبة

Izofaning ikkinchi qismi doimo majrur (kasrali) bo'ladi. Uning nimaning ta'sirida kasrali bo'lgani haqida ikki hil fikr bor. 1.

Muzofning ta'sirida va bu tog'ri fikrdir. 2. Taqdiridagi ل، من va في harflari ta'sirida.

Izofaning ma'nolari.

1. Agar muzof ilayhi muzofning jinsidan bo'lsa, izofa مِنْ ma'nosida bo'ladi.

Masalan:

ثوبٌ حريرٌ va خاتمٌ فضةٌ
ثوبٌ مِنْ حريرٍ va خاتمٌ مِنْ فضةٍ

2. Agar muzof ilayhi izofa ifoda qilayotgan ishning bajarilishi vaqtini bildirsa, izofa فِي ma'nosida bo'ladi.

Masalan:

صيامٌ نهارٌ va قيامٌ الليل
صيامٌ فِي نهارٍ va قيامٌ فِي ليلٍ

3. Agar izofa مِنْ (min) va فِي (fi) ma'nolarida bo'lmasa, ل (li) ma'nosida bo'ladi.

Masalan:

لجامٌ الفرسٌ va كتابٌ محمدٍ
لجامٌ للفرسٍ va كتابٌ لمحمدٍ

Bu turdagi izofa egalik yoki tegishlilik ma'nolarini bildiradi.

Masalan:

حصيرٌ المجدٍ va مالٌ زيدٍ

Izofaning lafziy va ma'naviyga bo'linishi:

1. Lafziy izofa.

Bunday izofadagi muzof muzore' (hozirgi kelasi zamon) fe'li kabi amal qiluvchi foil, maf'ul yoki sifat mushabbaha (doimiy sifat) ko'rinishidagi ismlar bo'ladi. Bular bunday izofada hozirgi yoki kelasi zamongagina dalolat qilishlari shart, o'tgan zamonga dalolat qilsa bo'lmaydi. Muzofning foil ko'rinishida kelganining misoli quyidagicha:

هذا ضاربٌ زيدٍ الآنٌ va مُكرّمٌ الضيّفِ غداً

Muzofning maf'ul ko'rinishida kelishining misoli quyidagicha:

مُرّوغٌ الفؤادِ va هذا بضروبِ الأبِ ya'ni qalbi soqingan

yuragi qo'rqitilgan. Sifat mushabbaha ko'rinishida kelishining misoli esa mana bunday:

عليّ حسنٌ الوجهِ va قليلٌ الجبلِ va عظيمٌ الأملِ

Bunday izofa muzofni aniqlab ham kelmaydi, uni kimgadir tegishli ekanligini ham bildirmaydi. Agarchi, muzof ilayhi (al) olgan bo'lsa ham, muzof aniq holda deb, hisoblanmaydi. Bu izofaning lafziy deb atalishining sababi, u lafziy bir ishni ifoda qiladi, ya'ni, yengillatish (tanvin va ikkilik va ko'plik nunlarining tushib qolishi). Shuningdek, bunday izofani, izofa qilmay, hech qanday (li, min) va (fi) harflarisiz ham aytish mumkin.

Masalan:

هذا ضاربٌ زيداً va مكرمٌ ضيفاً


«Baliq skeleti»

«Baliq skeleti» chizmasi tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar kichik guruhlariga bo'linib «Baliq skeleti» chizmasining yuqori „suyagida“ arab tilidagi 3 so'z turkumini yozadi, pastda esa bu so'z turkumlarga

«Rossiya prezidentining Misrga ziyorati» matnida uchragan misollarni keltiradi

«العلاقات الدبلوماسية بين عمان وروسيا»

«Ummon va Rossiya diplomatik aloqalari» matni



Amaliy mashqlar.

1. Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri joylashtirib, gap tuzing :

- من المقرر تجرى ان منفردة محادثة الرئيس بين الروسى الوزراء و رئيس الايطالى
- موسكو ان و طوكيو عن راضيتان الحالية الديناميكية لتطور الثنائية العلاقات
- يتقدم كيف الروسى التعاون المصرى ؟
- تغير روسيا بتطورات اهتمامها الوضع سورىة حول و لبنان

2. Notanish soʻzlarning oʻzbek tilidagi toʻgʻri variantini toping :

تَمَعَّ	dostona
وَدَّى	foydalanmoq
الثمانينات	xozirgi kunga qadar
بَحْرُ قَرْوِين	kuch, energiya
طاقة	imkoniyat
إمكانية	Kaspiy dengizi
الى حدّ الآن	intilmoq
سعى	saksoninchi yillar

3. Quyidagi soʻz iboralarini oʻzbek tiliga tarjima qiling:

. الحرب الاهلية , العمل المشترك , شريك اقتصادى , محادثة منفردة .

4. Quyidagi fellarning qaysi predloglar yordamida kelishini koʻrsating:

الحرف	الفعل	الحرف	الفعل
	أَتَفَقَ		شَدَّدَ
	رَكَزَ		رَضِيَ
	بَحَثَ		تَمَّ
	تَمَعَّ		قَدَّرَ

Nazorat savollari

10. Izofa birikmasi qanday birikma?
11. Izofa necha turli boʻladi?
12. Qanday predloglar maʼnosida keladi?
13. Maʼnoviy izofa nega maʼnoviy deyiladi?
14. Nima uchun lafziy izofa deyiladi?
15. Lafziy izofada muzof nega ال oladi?
16. Izofa zanjiri nima?

Mustaqil ish topshiriqlari:

17. Izofa zanjiri qoʻllanilgan jummalarni aniqlang.
18. Moslashgan aniqlovchi muzof va muzof ilayhi bilan moslashuvi holatlarini aniqlash.

Asosiy adabiyotlar:

25. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1998, 1, 6, 7, 12, 13, 17, 26, 27, 32, 38, 39.
26. Holidov B.Z., Uchebnik arabskogo yaz'ka, 1981, str. 17, 28-29, 35, 41, 45. .
27. Ibrohimov N., Yusupov, Arab tili grammatikasi, Toshkent, 1998, 8, 11-19 b.
28. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987, 19-44.

Qoʻshimcha adabiyotlar

31. Sharbatov G.Sh. Sovremenn'y arabskiy yaz'k. M. 1961.
32. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. T.1997.
33. Kovalyov A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yaz'ka M. 1998. Predislovie.
34. د. محمود فهمي حجازي . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1998 . علوم اللغة . القاهرة ، 1998

8-dars

ARAB TILIDA IZOHLOVCHI VA UNING TURLARI

Dars maqsadi: Izohlovchi va uning turlari haqida maʼlimot berish va ularni qoʻllash boʻyicha malakalarni hosil qilib, arab tili oʻqitishni yanada takomillashtirish uchun oʻtilgan mavzuning amaliy koʻnikmalarini yozma va ogʻzaki nutqda qoʻllash malakasini shakllantirish.

Tayanch iboralar:

1. Izohlovchi
2. Oddiy izohlovchi
3. Kuchaytirma izohlovchi
4. birikma olmoshlari
5. Qaytuvchi olmosh

Asosiy savollar:

1. Izohlovchi haqida ma'lumot.
2. Izohlovchining turlarga bo'linishi
3. Kuchaytirma izohlovchi.
4. البديل - almashtiruvchi izohlovchi.

Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, otga boshqa nom berish bilan uni aniqlab keladi.

